
NOZIMJON USMONOV TAQDIRLANDI

1-oktyabr - O'qituvchi va murabbiylar kuni munosabati bilan munosabati bilan bugun, viloyat sportni rivojlantirish bosh boshqarmasida ko'p yillar sport sohasida samarali mehnat qilib hozirda keksalik gashtini surib yosh avlodga o'rnak bo'lib, o'zlarining yordamlarini ayamay kelayotgan "Viloyat sport faxriylari kengashi" a'zolaridan iborat bir guruh sport faxriylariga bayram dasturxonini yozilib, tadbir tashkil etildi. Shuningdek, ularning bir guruhiga "O'zbekiston sport faxriysi" ko'krak nishonlari topshirildi. Ana shunday e'tirofga sazovor bo'lganlar orasida Rishton tumani sportini rivojlantirishga munosib hissasini qo'shgan Nozim aka Usmonov ham bor edi. Nozim aka Usmonov "O'zbekiston sport faxriysi" ko'krak nishoni bilan mukofotlangan rishtonlik birinchi murabbiy bo'ldi. Bunday yuksak e'tirof bilan Nozim aka Usmonovni muborakbod etamiz.

2022-09-27 14:58:08